Bugun pullarning paydo bo'lish tarixiga nazar solsak 17-asr ikkinchi yarmiga kelib qimmatbaho metallarni qog'oz banknotalar egallashni boshladi hamda 300 yildan so'ng ular o'z o'rnini elektron pullarga bo'shatib bera boshladi. 19-asrning yetmishinchi yillarda birinchi marta karta orqali naqd pulsiz tranzaksiya, ya'ni jo'natma amalga oshirildi. Lekin shunga qaramasdan bu elektron pul emasdi, faqat bank tizimi ichida o'zaro almashuv usuli edi xolos. Dastlabki elektron pul o'tkazmasi "1994-yilda DigiCash to'lov tizimi orqali amerikalik olim kompyuterchi David Li Chaumning real pulni virtual valyutaga aylantirish g'oyasi asosida amalga oshirildi"[1]. Ushbu tarixiy voqelik, birinchi navbatda, Internetning keng tarqalishi va virtual pullarni saqlash hamda kommunikatsiya tizimi sifatida maydonga chiqishidir.

Jahonda to'rtta pul turi hukmronlik qilmoqda, ular: naqd, naqdsiz, elektron va kriptovalyutalardir. Hozirga kelib dunyo "aholisining 30 foizidan kamrog'i naqd banknotalardan, qolgan qismi elektron pullardan foydalanmoqda. Bu ko'rsatkich, rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha 10 foizni, jumladan, Shvesiyada bir foizdan ham kamroqni"[2] tashkil etadi.

1 https://en.wikipedia.org/wiki/David_Chaum
2 https://yuz.uz/uz/news/elektron-pullaryoxud-bitkoinni-qazib-olish-oltin-ishlab-chiqarishdan-ham-qimmatga-tushadimi

"Elektron pullar naqd pullar bilan bir xil tarzda ishlaydi. Ulardan mahsulot yoki xizmatlarga to'lash uchun foydalanishingiz mumkin. Farqi shundaki, ular bank kartalari, axborot tashuvchi elektron moslamalarda yoki elektron hamyonlarda saqlanadi"[3].

Mamlakatimizda so'ngi yillarda elektron tijoratning rivojlanishi, turli to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar o'rtasida raqobatning shakllanishi va kuchayishi chakana to'lovlar bo'yicha tranzaksion xarajatlar qisqartirilishini, shu bilan birgalikda, to'lovlarni amalga oshirishda moliyaviy institutlarning vositachiligini talab qilmaydigan innovatsion hamda jozibador vositalarning joriy etilishini taqozo etmoqda. "Elektron pullar ana shunday tizimlardan biri sifatida kundalik hayotimizda keskin kirib bormoqda. Bugungi kunda butun dunyoda raqamli bank tizimlaridan foydalanuvchilar umumiy soni 2020-yilda 2,4 milliarddan oshdi. Tahlilchilarning prognozlariga ko'ra 2024-yilда raqamli bank foydalanuvchilari global miqyosda 54 foizga oshib 3,6 milliardni tashkil etadi, chunki faqatgina raqamli banklar bozorni katalizatsiya qilmoqda. Ushbu o'sishga faqat raqamli banklarning ko'payishi va o'rnatilgan bank brendlari tomonidan raqamli transformatsiyaga doimiy e'tibor qaratilishi sabab bo'ladi"[4]. Shu boisdan dunyoning juda ko'plab mamlakatlarida bank xizmatlari bankka tashrif buyurmasdan masofadan boshqarish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida mijozlarga taqdim etiladigan elektron bank xizmatlarini ko'rsatish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"[5]gi PF-5992-sonli Farmonida "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lmagan funksiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish; avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish; bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish; bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank)"6 kabi vazifalarning belgilanganligi mavzuning dolzarbligini dalilini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron pullarning o'ziga xos xususiyatlari xorijiy olimlar Schär F., Bech M.C., Boar, D.Yeidan, P.Haene, H.Holden, W.Toh[7] tomonidan ayrim jihatlari o'rganilgan va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

D.Jentle, J.Sinki, P.Rouzlarning qarashlarida "Moliyaviy supermarket va moliyaviy butik g'oyasi hamda tor yo'nalishga ixtisoslashgan banklarning universal banklar qatoriga qo'shilishi dolzarblik kasb etishi. Ssuda kapitali bozoridagi xizmatlar, elektron xizmatlar keng tarqaldi, banklarning birlashish va singib ketish holatlari ko'payganlini"[8] keltirishadi.

Ushbu sohada mavjud muammolarning ilmiy amaliy jihatlari mahalliy iqtisodchilardan Sh.Z.Abdullaeva, T.M.Qoraliev, A.A.Omonov, M.M.Nuralieva, Z.T.Mamadiyarov[9]lar tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"[10]gi Qonunining qabul qilinishi elektron pullar muomalasini, jumladan, "elektron pullarni chiqarish, foydalanish va ularni qoplash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatning huquqiy asosini yaratib berdi"[11]. Ushbu qonun asosida "O'zbekiston

3 https://finlit.uz/uz/articles/payments-and-transfers/online-payments/
4 www.sciencedirect.com//juniperresearch/press/digital-banking-users ma'lumotlari asosida tayorlandi
5 https://lex.uz/docs/-4811025
6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmon.
7 Schär, Fabian. 2021. "Decentralized Finance: On Blockchain- and Smart Contract-Based Financial Markets." Federal Reserve Bank of St. Louis Review 103 (2): 153-74. https://doi.org/10.20955/r.103.153-74; Bech M., C. Boar, D.Yeidan, P.Haene, H.Holden and W.Toh. 2022. "Using CBDCs across Borders: Lessons from Practical Experiments." BIS Innovation Hub, Bank for International Settlements, Basel.
8 Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. – М: "Альпина Бизнес Букс", 2007. – С. 1018. Роуз Питер С. Банковский менеджмент. Пер. с англ. со 2-го изд. – М.: "Дело Лтд", 1995. – С. 479.
9 Sh.Z.Abdullaeva Bank ishi. Darslik. T: "IQTISOD-MOLIYA", 2017 y. 535-540 b.; A.A.Omonov., M.T.Qoraliev Banklarda buxgalteriya hisobi T. "IQTISOD-MOLIYA", 2014 y 118 b.; M.M.Nuralieva. Elektron tijoratda moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertasiyasi avtoreferati. Toshkent 2021. Mamadiyarov Z.T. "Tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni rivojlantirish". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. Toshkent 2021.
10 https://lex.uz/docs/-4575786 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.11.2019-yildagi O'RQ-578-son
11 https://lex.uz/docs/-4575786 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.11.2019-yildagi O'RQ-578-son

Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo‘lishi qoidalari”[12] ishlab chiqilib, Adliya vazirligida 2020-yil 29-aprelda 3231-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Mazkur hujjat jahon tajribasiga tayangan holda, “elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, elektron pullar muomalasi, elektron pullar tizimida risklarni boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta’minlash maqsadida ishlab chiqildi. Unda elektron pullar tizimiga oid asosiy tushunchalar, shu jumladan, ayirboshlash operatsiyasi, bir va ko‘p emitentli elektron pullar tizimi, oldindan to‘langan karta, elektron pullar tizimining agenti, elektron hamyon va sohaga oid”[13] boshqa terminlarga batafsil tushuntirishlar berilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada guruhlash, abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil, ilmiy prognozlash, iqtisodiy-statistik, grafik-tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Qoidaga muofiq, “emitent, operator, elektron pullar tizimining agenti, elektron pullar egasi, shuningdek, emitent bilan shartnoma tuzgan banklar, to‘lov tashkilotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) yuridik shaxslar elektron pullar tizimining subyektlari hisoblanadi. Bunda elektron pullar tizimining ishlashini ta’minlaydigan bank va (yoki) tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan to‘lov tashkiloti – elektron pullar tizimining operatoridir. Emitent yoki emitent bo‘lmagan boshqa bank operator bilan tuzilgan shartnoma asosida elektron pullar tizimining hisob-kitob banki sifatida faoliyat yuritishi mumkin”[14]. Ta’kidlash lozimki, emitent o‘z faoliyatini boshlashi uchun, eng avvalo, elektron pullarni chiqarish va realizatsiya qilishi to‘g‘risida Markaziy bankka belgilangan shakldagi xabarnoma va unga ilova sifatida operator bilan tuzilgan shartnoma hamda elektron pullar tizimi subyektlari bilan tuziladigan shartnomalar namunalarini yuborishi zarur.




1-rasm: Elektron pul tizimi subyektlari[15]

Elektron pullarning asosiy afzalliklaridan biri, bank hisobvarag‘ini ochmasdan turib to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi va tezkor tizimning yo‘lga qo‘yilganligidadir. Shu bilan birga to‘lovlarni amalga oshirayotgan paytda vositachilik haqining boshqa to‘lov vositalariga qaraganda arzonligi hisoblanadi.

12 https://lex.uz/docs/-4803632 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 29.04.2020 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3231
13 https://lex.uz/docs/-4803632 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 29.04.2020 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3231
14 https://lex.uz/docs/-4803632 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 29.04.2020 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3231
15 Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma’lumotlari asosida).

1-jadval: Jismoniy shaxslar uchun elektron pullar qulayliklari[16]

| Bank kartalari | Elektron pullar |
|---|---|
| Bank hisobvarag'ini ochish talab etiladi | Xaridor jismoniy shaxs elektron hamyonni uyali aloqa telefoni raqamiga ochishi mumkin |
| Operatsiyalarni amalga oshirayotganda bank karta hisobvarag'iga murojaat qilish talab etiladi | To'g'ridan-to'g'ri elektron hamyon orqali muomala qilinadi (tegishli bank vositachilik haqi ushlab qolinmaydi, xarajatlar kamayadi) |
| Tijorat banklari bank kartalarini ochayotganda mijozni identifikatsiya qilishlari kerak | Elektron hamyon egasi identifikatsiya qilinishi yoki identifikatsiya qilinmasligi mumkin. Identifikatsiya qilingan elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan bitta operatsiyaning eng ko'p summasi 100 BHMga teng bo'lgan summadan oshmasligi kerak. Identifikatsiya qilinmagan elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan bitta |

Hozirgi kunga kelib, O'zbekistondagi elektron pullar tizimi miqdori 15 taga yetdi.

1-jadval: Elektron pullar tizimlari reestri[17]

| № t/r | Elektron pullar tizimi nomi | Operator nomi | Emitent nomi | Elektron pullar chiqarish sana |
|---|---|---|---|---|
| 1. | «OSON» | "BRIO GROUP" MChJ | «Turkiston» XATB | 16.06.2020 y. |
| 2. | «E-CARD» | "INSPIRED" MChJ | ATB «Universal bank» | 21.08.2020 y. |
| 3. | «CLICK» | "CLICK" MChJ | «Agrobank» ATB | 21.08.2020 y. |
| 4. | «WOOPPAY» | "WOOPPAY UZ" MChJ | «Kapitalbank» ATB | 02.11.2020 y. |
| 5. | «alif.mobi» | "ALIF TECH" MChJ | AT «Aloqabank» | 02.11.2020 y. |
| 6. | «Interpay» | "Interpay sys" MChJ | «Kapitalbank» ATB | 28.07.2021 y. |
| 7. | «A-pay» | "CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION" MChJ | «Bank Apelsin» AJ | 01.07.2022 y. |
| 8. | «QIWI Uzbekistan» | «Payment Aggregation Systems» MChJ | «Bank Apelsin» AJ | 11.08.2022 y. |
| 9. | «1HLSW» | "Genesis Innovation" MChJ | AT «Aloqabank» | 17.11.2021 y. |
| 10. | «GlobalPay» | "Global Solutions" MChJ | AT «Aloqabank» | 17.11.2021 y. |
| 11. | «Payway» | "Payway" MChJ | «Bank Apelsin» AJ | 29.07.2022 y. |
| 12. | «Apelsin» | "Bank Apelsin" AJ | «Bank Apelsin» AJ | 29.07.2022 y. |
| 13. | «ExMoney» | "O'zbekiston Respublikasi Tovar-xomashyo birjasi" AJ | «Trastbank» XAB | 30.08.2022 y. |
| 14. | «AIST» | "Ozinterpay" MChJ | ATB «Universal bank» | 30.08.2022 y. |
| 15. | «PAYNET WALLET» | «INSTANT PAYMENT SOLUTIONS» MChJ | AT Xalq banki | 30.08.2022 y. |

Butun jaxon migratsiya va taraqqiyot tadqiqotlar agentligining qisqacha ma'lumotlariga ko'ra, "past va o'rta daromadli mamlakatlarga pul o'tkazmalarining rasmiy ravishda qayd etilgan oqimlari 2020-yilda 540 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2019-yildagi 548 milliard dollardan atigi 1,6 foizga kamdir. 2020-yilda pul o'tkazmalarining qayd etilgan oqimining pasayishi 2009-yilgi jahon moliyaviy inqirozi davridagi ko'rsatkichdan (4,8 foiz) kichikroq bo'ldi" [11].

16 Muallif hisob-kitoblari.
17 Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma'lumotlari asosida).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS




2-rasm: Elektron hamyonlarni to'ldirish jarayonlari[18]

2-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron pullarning chiqarilishi emitent tomonidan jismoniy shaxs yoki elektron pullar tizimining agentidan qabul qilingan pul mablag'lari doirasida elektron pullar tizimi qoidalari hamda elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnomaga asosan amalga oshiriladi.




3-rasm: Elektron pullarni qoplash texnologiyasi[19]

3-rasm ma'lumotlari tahlili bo'yicha, emitent elektron pullar egasi tomonidan taqdim qilingan elektron pullarni mazkur tizim qoidalari hamda emitent va elektron pullar egasi o'rtasida tuzilgan elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnomaga muvofiq naqd pulga almashtirish yoki naqd pulsiz mablag'larni elektron pullar egasining bank hisobvarag'iga kirim qilish orqali qoplaydi.

18 Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma'lumotlari asosida).
19 Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma'lumotlari asosida).

Hozirgi kunda Markaziy bank tomonidan “milliy to‘lov tizimlarini rivojlantirish va moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish yo‘nalishidagi ishlar doirasida bank biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va xizmatlarning raqamli kanallar orqali ko‘rsatilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda”[20]. Xususan, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 1,5 barobarga oshib, 2023-yilning 1-yanvar holatiga 30 mln.ga etdi. Bunda, foydalanuvchilarning 1,2 mln. tasini yuridik shaxslar tashkil etgan bo‘lsa, bank kartalari va bank depozit hisobvaraqlari bo‘yicha bank hisobvaraqlarini masofadan boshqari tizimlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni deyarli 30 mln. taga teng bo‘lgan. Banklarning mobil ilova dasturlarida jismoniy shaxslar uchun barcha bazaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratilishi natijasida masofadan turib onlayn tarzda amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi hisobot yilida 145,8 trln. so‘mga etdi. Bunda, mobil ilova dasturlari orqali amalga oshirilgan onlayn depozitlar – 21,9 trln. so‘m, konversiya amaliyotlari – 20,9 trln. so‘m, onlayn mikroqarzlar – 5,6 trln. so‘m, kreditlarni so‘ndirish hajmi – 8,2 trln. so‘mni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.




4-rasm: QR-online tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar[21]

4-rasm ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2022-yilda “QR-online” axborot tizimi tomonidan tadbirkorlik subyektlariga taqdim qilingan QR-kodlar soni 2021-yilga nisbatan qariyb 8 ming taga oshib 99 ming taga etdi. Shunga qaramasdan, 2022-yilda ushbu tizim orqali o‘tkazilgan tranzaksiyalar xajmi 2021-yildagi 14,9 mlrd. sumdan 191,6 mlrd. so‘mgacha oshgan, tranzaksiyalar soni esa 4,2 barobarga oshib 63,2 ming tani tashkil qildi.




5-rasm: Elektron pullar tizimlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyala[22]

20 https://cbu.uz/uz/payment-systems/history/
21 https://cbu.uz/uz/payment-systems/history/
22 https://cbu.uz/uz/payment-systems/history/

5-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2023-yilning 1-yanvar holatiga Markaziy bankning elektron pullar tizimlari reestriga 15 ta elektron pullar tizimlari kiritilgan bo'lib, mazkur tizimlarda ochilgan elektron hamyonlar soni 8,4 mln. donaga etdi. Hisobot yilida elektron pullar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 2021-yilga nisbatan 1,8 barobarga oshgan holda 11,6 mln. donani, tranzaksiyalar hajmi esa 1,6 barobarga o'sib 273,2 mlrd. so'mni tashkil etgan.




6-rasm: Onlayn to'lov tartibi quyidagicha[23]

Elektron hamyon egalari tomonidan o'tkazilgan tranzaksiyalarning 92 foizi elektron pullar tizimlarining ishtirokchisi bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining elektron hamyonlariga muayyan tovar (xizmat, ishlar) uchun to'lovlarni amalga oshirish hamda 8 foizi jismoniy shaxslar elektron hamyoniga pul o'tkazmasini amalga oshirish maqsadida foydalanilgan. Elektron pullar vositasida amalga oshirilgan to'lovlarning 28 foizi mobil operatorlarning xizmatlari, 10 foizdan – kommunal xizmatlar hamda o'yin va ijtimoiy tarmoqlardagi xizmatlar, 9 foizi – xorijiy elektron hamyonlarni to'ldirish, 5 foizi joyidagi to'lovlar va boshqa xizmatlar uchun o'tkazilgan to'lovlarni tashkil etadi.

## XULOSA

Bank tizimi barqarorligini ta'minlash va iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlarini ragbatlantirishga qaratilgan qator muhim chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bu esa, bank va boshqa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kengayishi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga imkon beradi va eng yuksak xalqaro standartlar talabiga mos zamonaviy bozor infratuzilmasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Bank tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko'lamda tadbik qilinishi ushbu tizimning yanada samarali faoliyat olib borishini ta'minlaydi.

Zamonaviy voqelikda marketingda axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan bank muassasasi faoliyatini olib borish mumkin emas. Internet-marketingning har xil turlaridan foydalanish, yangi mijozlarni jalb qilish, mavjud bozorni kengaytirish imkonini beradi. Hech shubha yo'qki, bugungi kunda ushbu istiqbolli marketing vositalariga etarlicha e'tibor beradigan banklar, ertaga o'zlarining raqobatchilariga qarshi jiddiy ustunlikka ega bo'lishadi. Shu munosabat bilan, banklar onlayn xizmatlarni taqdim etish tizimini rivojlantirish bilan bir qatorda, onlayn ma'lumotlarni to'plash tizimini ham ishlab chiqishi kerak. Bu ularga mijozlar haqidagi so'nggi ma'lumotlarni olish va tadqiqot xarajatlarini qisman kamaytirish imkonini beradi.

23 Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz ma'lumotlari asosida).

Shunday qilib, bank muassasalari tomonidan mijozlar bo'yicha samarali tadqiqotlarni ishlab chiqish va o'tkazish, ularga o'zlari bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash va bozor ko'rsatkichlarini oshirishga imkon beradi. Bank uchun o'zining marketing tadqiqotlarini professional ravishda olib boradigan kompaniyalarning xizmatlari bilan birlashtirish juda muhimdir. Shuningdek, bank muassasalari zamonaviy aloqa vositalarining har xil turlaridan foydalangan holda zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanishi kerak. Chunki ularda mijozlar bilan bevosita bog'lanish bo'yicha zarur axborotlar mavjud.

Respublikamiz tijorat banklari xizmatlari tarkibida overdraft, valyutaviy svop xizmat turlarining rivojlanmaganligi, forfeyting, kontokorent, trast xizmatlarining mavjud emasligi banklarning moliyaviy xizmat soni va sifatini oshirish borasidagi dolzarb muammolarning mavjudligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarida internet-banking xizmat turi bo'yicha marketing bo'limlarini tashkil qilish orqali mijozlarni kengroq qamrab olish va ularni ushbu xizmat turidan xabardorligini ta'minlash lozim;

Yangi bank xizmatlari bilan ishlashda malakali axborot texnologiyalari va bank xizmatlarini birday yaxshi tushunadigan kadrlarni muntazam tayyorlash;

Banklarning faoliyatini ish uslubini o'zgartirish, bunda har bir mijozga yo'naltirilgan o'z strategiyasini ishlab chiqish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmon.
2. Schär, Fabian. 2021. "Decentralized Finance: On Blockchain- and Smart Contract-Based Financial Markets." Federal Reserve Bank of St. Louis Review 103 (2): 153-74. https://doi.org/10.20955/r.103.153-74;
3. Bech M., C. Boar, D.Yeidan, P.Haene, H.Holden and W.Toh. 2022. "Using CBDCs across Borders: Lessons from Practical Experiments." BIS Innovation Hub, Bank for International Settlements, Basel.
4. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. – М: "Альпина Бизнес Букс", 2007. – С. 1018.
5. Роуз Питер С. Банковский менеджмент. Пер. с англ. со 2-го изд. – М.: "Дело Лтд", 1995. – С. 479.
6. Sh.Z.Abdullaeva Bank ishi. Darslik. T: "IQTISOD-MOLIYA", 2017 y. 535-540 b.
7. A.A.Omonov., M.T.Qoraliev Banklarda buxgalteriya hisobi T. "IQTISOD-MOLIYA", 2014 y 118 b.
8. M.M.Nuralieva. Elektron tijoratda moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertasiyasi avtoreferati. –Toshkent -2021.
9. Mamadiyarov Z.T. "Tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni rivojlantirish". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. –Toshkent-2021.
10. www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayorlandi.
11. https://www.worldbank.org
12. https://en.wikipedia.org/wiki/David_Chaum
13. www.sciencedirect.com//juniperresearch/press/digital-banking-users ma'lumotlari asosida tayorlandi.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.